INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

[1]G‘ulamov Ilhom Akramovich, [2]Ismailov A.M.
[1]TMC instituti, assisent o‘qituvchi, [2]TDIU i.f.d., professor v.b.
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191953

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muhokama qilinadi, jumladan, qurilish sanoatining innovatsion rivojlanishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy salohiyat, baholash mezoni, qurilish materiallari sanoati korxonalari, innovatsion faollik, asosiy ko‘rsatkichlar, innovatsion salohiyat, mexanizm,*

Mamlakat rivojlanishining hozirgi sharoitida har bir qurilish materiallari sanoati korxonasi o‘z ishlab chiqarish quvvati darajasini doimiy va maqsadli ravishda oshirishni, ishlab chiqarish ko‘lami va hajmini kengaytirishni, ishlab chiqarish vositalarini o‘z vaqtida va sifatli yangilab turishni, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etishning to‘g‘riligi va aniqligini talab qiladi. Ushbu omillar qurilish materiallari sanoati korxonasining innovatsion faolligini samarali oshirishda talab qilinadigan raqobatbardoshlik darajasiga erishish imkonini beradi. Mazkur omillarni to‘g‘ri baholash va samarali oshirish uchun barcha asosiy ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan murakkab ko‘p darajali tizimni yaratish kerak. Aynan shu maqsadda iqtisodiyotga "korxonaning innovatsion faolligi" kategoriyasini baholash asosida ushbu korxonalarning yanada rivojlanishi va to‘g‘ri ishlashi uchun zarur bo‘lgan hajmdagi resurs va zaxiralarning butun majmuasini baholash asosida ularni boshqarish tizimi yaratiladi.
Qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion faolligini baholash va oshirish mexanizmidan foydalanishning ifodaviy ko‘rinishi quyida keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion faolligini baholash va oshirish mexanizmining konseptual sxemasi[1].

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faolligini baholash mexanizmi o‘zining boshqaruv ekstropolyatsion maydonidagi jarayonlarni qay bosqichda (shaxs, korxona, hudud) egallaganligi miqyosidagi manfaatdorlik darajalarini tahlil etib, hamda baholab, rivojlanishning to‘g‘ri yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi.

Innovatsion mexanizm yordamida vujudga keltirilgan boshqaruv platformasining ahamiyati, menejment nazariyasini boshqaruv amaliyotida qo‘llash, ya’ni ulardan aniq ko‘rinishlardagi vaziyatda, foydalana olish qobiliyatini o‘rgatadi. Mexanizm boshqaruvining asosiy vazifasi shaxs, korxona va jamiyat rivojlanishining obektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va oshirish amaliyotini umumlashtirish asosida iqtisodiyotni samarali oshirish uchun zarur maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar tamoyillari bo‘yicha amal qiladi. Shuning uchun boshqaruvni innovatsion va intellektual jihatlariga e’tibor qaratib tashkil etmoqlikni zamonning o‘zi taqozo etmoqda.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faolligini jumladan, boshqaruv faolligini qanchalar to‘g‘ri va adolatli baholanishi, qurilish materiallari sanoati korxonasining ish faoliyatini shunchalar to‘g‘ri va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faolligini manfaatdorlik jihatidan baholash eng quyi zvenodan boshlanib, u o‘zidan keyingi pog‘onlarga, hatto boshqaruvning eng yuqori iyerarxiyasiga qadar o‘zgarishsiz sof holatda yetib boradi (3.2-rasm).

Bu bilan vaziyatni to‘g‘ri va adolatli baholash imkoni vujudga keladi hamda haqqoniy qarorlar qabul qilish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu shaffof tizim bo‘lib, undagi har bir tuzilma o‘z ma’lumotlarini o‘zidan keyingi boshqaruv tizimiga uzatadi. Har bir yuqori boshqaruv tuzilmasi teskari aloqa yo‘li bilan o‘zining quyi tashkilotlarining eng mayda yacheykalari, xatto xodimlarining ma’lumotlariga qadar kirib borish imkoniga ega bo‘ladi.

Bunda menejmentning 5 ta funksiyasini, ya’ni:

- rejalashtirish
- tashkil etish
- muvofiqlashtirish
- nazorat qilish
- rag‘batllantirish

haqiqatga eng yaqin darajadagi to‘g‘ri tanlovi shakllantiriladi. Bundan tashqari qurilish materiallari sanoati korxonasi innovatsion faolligini integral baholash transporent elektron boshqaruv tizimini tashkil etish orqali barcha qurilish materiallari sanoati korxonalarining umumiy innovatsion faollik indekslarini shakllantirish, ularning reytingini e’lon qilish va boshqa turli ko‘rsatkichlar orqali ular raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarning eng muhim jihati – qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligini to‘g‘ri va adolatli baholash imkoniyati yaratiladi. Bu bilan innovatsion faollik tarkibiy qismlaridan samarali foydalanish, joy-joyiga qo‘yish, malakasini oshirish, rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish muvaffaqqiyatlarga erishishning muhim omili sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Qurilish materiallari sanoati korxonasi faoliyatining kundalik amaliyotida nazorat mexanizmi, bu har safar boshqaruv qarori qabul qilinganda, boshqaruv mexanizmining barcha oldindan tanlangan tarkibiy elementlarini muvofiqlashtirish orqali shakllantiriladi. Haqiqiy

boshqaruv mexanizmi har doim o‘ziga xosdir, chunki u aniq maqsadga erishishga qaratilgan bo‘lib, bu aniq vositalar, resurslar yoki mavjud faollikdan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruv mexanizmining barcha elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, korxonalarning rivojlanish bosqichiga va atrof-muhit sharoitlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Korxonani boshqarish mexanizmlarining umumiy tuzilmasida mehnat faolligini oshirish jarayoni alohida o‘rin tutadi, bu esa xodimlarning kasbiy mahorati darajasining o‘sishini, uning innovatsion faoliyatini faollashtirishni ta’minlaydi va natijada korxonaning innovatsion faolligi oshishiga olib keladi.

Korxonani boshqarish tizimi ishlab chiqarish jarayoni va boshqaruv qismlarini o‘z ichiga oladi. Boshqarish tizimi doirasida nazorat subekti va obekti alohida ajratiladi va ular o‘rtasida teskari aloqa yuzaga keladi. Boshqaruv subektining boshqaruv obektiga ta’siri murakkab boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash orqali, jumladan rejalashtirish, kengashish, vaziyatni baholash, tavakkalchilik, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tartibga solish hamda rag‘batlantirish kabi mexanizmlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruv jarayonida korxona kutilayotgan faoliyat natijalarini belgilaydi, so‘ngra kutilgan va haqiqiy natijalar o‘rtasida taqqoslash amalga oshiriladi. Agar haqiqiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar asosida hisoblangan iqtisodiy ko‘rsatkichlar korxonaga mos kelmasa, u holda korxonaning yanada samarali ishlashi uchun innovatsion muhitni yaratadigan korxonaning zaif bo‘g‘inlarini aniqlashi kerak bo‘ladi.

Har bir hududda yirik qurilish materiallari sanoati korxonalari doirasida qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obektlarini loyihalashtirish va tayyor ko‘p qavatli uy-joylar qurishgacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish lozim bo‘lib va shu bilan birga ushbu klasterlar o‘z ichiga ishchi va xodimlar xavfsizligini sug‘urtalash tizimini ham qamrab olishi talab etadi. O‘z navbatida qo‘shilgan qiymat zanjiri deganda mahsulotni ishlab chiqarilgan paytdan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo‘lgan ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, shu jumladan ishlab chiqish va loyihalash jarayonlari, xom ashyo etkazib berishni ta'minlash, maxsulot marketingi va sotuvni tashkil etish shuningdek sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish nazarda tutilsa, bunda barcha jarayonlarda yaratilgan qiymat qo‘shilib ortib boraveradi. Mahsulot ushbu zanjirdagi barcha jarayonlardan ma'lum tartibda shakllanadi va har bir jarayon davomida qo'shimcha qiymat yaratiladi. Bundan tashqari, butun zanjirdan davomida, mahsulot barcha jarayonlar qiymatlari yig'indisidan kattaroq qiymatlarga ega bo'ladi.

Qiymat zanjiri tahlili har bir jarayon mahsulotga qancha qiymat qo'shishini baholaydi.

Ushbu model kompaniya jihozlar, pul odamlari va boshqaruvning tasodifiy kombinatsiyasi emas degan fikrdan kelib chiqqan. Agar ushbu komponentlar bir tizimda tashkil etilsa va to'g'ri foydalanilsa, iste'molchilar to'lashga tayyor bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish mumkin bo'ladi. Muayyan jarayonlarni bajarish va ularning boshqa jarayonlar bilan o'zaro ta'sirini boshqarish qobiliyati raqobatdosh ustunlikni yaratadi.

Qo‘shilgan qiymat zanjirida ikki turdagi jarayonlar mavjud:

1. Asosiy faoliyat.

2. Yordamchi faoliyat.

Asosiy faoliyat mahsulot yoki xizmatni yaratish yoki etkazib berish bilan bevosita bog'liq bo‘lib, bunda beshta jarayonni o‘z ichiga oladi:

1. Kiruvchi logistika - tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan materiallarni qabul qilish va saqlash.

2. Operatsiyalar - yakuniy mahsulotni yaratishga qaratilgan qayta ishlash, yig'ish, qadoqlash va boshqa harakatlar.

3. Chiqish logistikasi - tayyor mahsulotni saqlash, buyurtmani bajarish, etkazib berish - yakuniy iste'molchiga etkazib berish bilan bog'liq barcha jarayonlar.

4. Marketing va sotish - iste'molchilarni xarid qilishga undash bilan bog'liq faoliyat, reklama, reklama tadbirlari, sotish, narxlash.

5. Xizmat ko‘rsatish - tayyor mahsulotga qiymat qo'shadigan jarayonlar, jumladan, ta'mirlash, o'rnatish, o'qitish, mijozlarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Yordamchi faoliyat asosiy jarayonlar samaradorligini oshirishga yordam beruvchi jarayonlar to‘plami bo‘lib, ushbu turkumga quyidagilar kiradi:

- Ta'minot - xom ashyo, xizmatlar, ehtiyot qismlar, uskunalar va hatto butun zavodlarni sotib olish.

- Texnologiyani ishlab chiqish - tadqiqot va ishlanmalar, jarayonlarni avtomatlashtirish, takomillashtirilgan axborot tizimlari arxitekturasini yaratish va boshqalar.

- Inson resurslarini boshqarish - xodimlarni yollash, o'qitish, kompensatsiya qilish va ushlab turish bilan bog'liq faoliyat.

- Firma infratuzilmasi - boshqaruv, umumiy boshqaruv, strategik va operatsion rejalashtirish, sifat menejmenti, buxgalteriya hisobi, huquqiy jarayonlar va boshqalar[2]. Bundan tashqari qurilish sohasining keng miqyosda rivojlanishi ushbu tarmoq ma’lumotlarining ochiq va shaffof bo‘lishini talab etadi.

Qurilish materiallari sanoati korxonasining innovatsion faolligini o‘rganish bosqichlarining ravshanligi va aniqligiga qaramay, uni boshqarish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud:

- Muayyan omillar guruhi bo‘yicha innovatsion faolligini baholash yondashuvini tanlashning murakkabligi.

- Korxonaning faollik darajasini baholash mumkin bo‘lgan meyoriy qiymatlarning yo‘qligi.

- O‘zbekiston statistikasida qurilish materiallari sanoati korxonalari faollik darajalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning kamligi yoki umuman yo‘qligi. -

- Korxonalar innovatsion faolligini rivojlantirishning keyingi yo‘llarini aniqlash uchun hech qanday asoslarning mavjud emasligi.

Shunga muvofiq, qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv darajasini oshirish va ishlab chiqarish-innovatsion faolligini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy yo‘nalishlarni ishlab chiqish zarur bo‘lib, ular quyidagicha bo‘linishi mumkin:

- Statistika va soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan qurilish tarmog‘i korxonalari xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligi ko‘rsatkichlarining asosiy qiymatlarini o‘z ichiga olgan maxsus ma’lumotlar bazasini yaratish.

[2]https://abc-of.by/14-Цепочка-добавленной-стоимости/

- Qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligini boshqarishning maqsadli qiymatlarini aniqlash, ushbu amaliyot natijasida kelajakda ochiladigan strategik imkoniyatlarni ko‘rsatib berish.
- Ilg‘or xorijiy tajriba hamda tadqiqotlar asosida innovatsion faollik boshqaruvi va uning asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash bo‘yicha yagona yondashuvni ishlab chiqish.

Qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligini oshirish muammosini hal qilish moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, innovatsion-investitsion, boshqaruv hamda ehtimoliy faolliklarni tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish, monitoring, nazorat qilish va baholash kabi boshqaruv funksiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq jarayonni o‘z ichiga oladi.

Korxonalarning innovatsion faolligini oshirishning eng muhim bosqichlaridan biri, bu – uning holatini tahlil qilish va baholashdir. Buning uchun iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni aniqlash zarur bo‘ladi.

Bizningcha, qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligini oshirish funksiyalari sifatida rejalashtirish, kengashish va qaror qabul qilish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, tavakkal qilish, motivatsiya ya’ni, rag‘batlantirish, nazorat qilish, tartibga solish, baholash funksiyalarini keltirishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion faolligini, jumladan moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, innovatsion-investitsion, boshqaruv hamda ehtimoliy faolliklarini oshirish funksiyalaridan to‘g‘ri foydalanish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismailov A. Qurilish korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarning shakllanishi. iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022. 10 (3), https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/10/10.

2. Головнина Л.А., Жигунова О.А., Семенова С.В. Теоретические аспекты прогнозирования вероятности банкротства и учет, связанный с процедурами банкротства на предприятиях: монография. – М.: Нефть и газ, 2008.

3. Гунина И.А. Теоретико-методологические основы формирования концепции развития экономического потенциала предприятия // Машиностроитель. – 2004. - № 10.

4. Жигунова О.А. Теория и методология анализа и прогнозирования экономического потенциала предприятия: монография. – М.: ИД «Финансы и Кредит», 2010.

5. Гвозденко А. Н. Использование методики многофакторного SWOT-анализа для разработки стратегических направлений деятельности / А Н Гвозденко // Маркетинг и маркетинговые исследования 2006 - № 4.

6. Хакен Г. Основные понятия синергетики//Синергетическая парадигма. – М .:2000.

Суворова Л.А. Синергетический эффект кластеризации отрасли: анализ, оценка, прогноз: монография. – Киров: ВятГУ, 2015.